XALQ DEPUTATLARI YANGIQO'RG'ON TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 30 - iyun VI-38-83-6-90-K/22 Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi doirasida Yangiqo‘rg‘on tumanida geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining takliflari to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”, “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida” gi qonunlarining Yangiqo‘rg‘on tumanidagi ijrosi, xususan, hiyobon, istirohat bog‘i, ziyoratgohlar, tepaliklar, qabristonlar, ko‘chalar va aholi punktlarini nomlash va qayta nomlash, ularni davlat tilida ifodalanishi, geografik ob’ektlarning nomlarini qonun xujjatlari talablariga muvofiqlashtirish maqsadida, shuningdek, geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosalarini ko‘rib chiqib hamda muhokama qilib Xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi doirasida Yangiqo‘rg‘on tumanida Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022 yil 27 yanvardagi № 01-14-75 sonli xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

3. Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Yangiqo‘rg‘on tuman komissiyasi tomonidan tumandagi hiyobon, istirohat bog‘i, ziyoratgohlar, tepaliklar, qabristonlar, ko‘chalar “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida” va “Davlat tili xaqida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari talablariga javob bermaydigan nomlarni o‘zgartirish va qayta nomlash bo‘yicha takliflari ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Bunda: hiyobon, maydon, istirohat bog‘i, ziyoratgohlar, tepaliklar, qabristonlar, ko‘chalarga nom berish va nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar fuqarolar yig‘inlarida muhokama etilgandan so‘ng, tuman komissiyasida ko‘rib chiqilganligi:

- Shaxslarni ismlari bilan, tarixiy voqealar sharafiga nomlash va qayta nomlash soxasida belgilangan cheklovlarga qat’iy rioya etilganligi e’tiborga olinsin.

5. Yangiqo‘rg‘on tumani Statistika bo‘limiga manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2022 yilning 1 avgustiga qadar geografik ob’ektlarning nomlari davlat reestr ma’lumotlar bazasini o‘zining ma’lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish xamda geografik ob’ektlar joylashgan joyi, geografik ob’ektning nomi (oldingi nomi) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni berish imkoniyati mavjud bo‘lgan veb-portalni ishga tushirish vazifalari topshirilsin.

6. Yangiqo‘rg‘on tumanida geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasiga tuman hokimining ma’naviy–ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to‘g‘risidagi qonun xujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha hokim maslahatchisiga tumandagi barcha tashkilot va korxonalarda davlat tilida ish yuritish bo‘yicha hamda geografik ob’ektlar nomlarini qonun xujjatlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha o‘quv seminarlari o‘tkazish tavsiya etilsin.

7. Xalq deputatlari tuman Kengashining mazkur qarori 10 (o‘n) kun muddatda “Davergeodezkadastr” qo‘mitasiga geografik ob’ektlarining nomlarini davlat reestriga kiritish uchun taqdim etilsin

8. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiya raislari zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Najmiddinov**

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on
tuman Kengashining
2022 yil 30 iyundagi
VI-38-83-6-90-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman Kengashining _____-sonli qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik ob’ektning turi	Geografik ob’ektning amaldagi nomi	Geografik ob’ektning joylashgan o‘rni	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izox
1	2	3	4	5	6
1	Qabriston	Rovut	Rovut MFY	Rovut	Rovut. Rovut qishlog‘i hozirda Yangiqo‘rg‘on Namangan yo‘lining yoqasida joylashgan. Qishloq joylashgan hudud qadimda katta savdo karvonlari o‘tadigan yo‘l ustida bo‘lgan. Karvonlar qishloqda to‘xtab dam olishga, ot va tuyalarni sug‘orib, yemlashga, aravalarni ta’mirlashga majbur bo‘lganlar. Sekin-asta qishloqda karvonsaroylar, mehmonxonalar, savdo do‘konlari, choyxonalar, savdogarlarning mollarini saqlash uchun omborxonalar bunyod etilgan. Shuningdek, Rovot chegara qo‘rg‘oni, istehkom, qo‘rg‘on ma’nolarini ham bildirgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
2	Qabriston	Yorilgan	Nurafshon MFY	Yorilgan	Yorilgan. Yorilgan qishlog‘ining vujudga kelishi qishloq o‘rnining geografik joylashuvi bilan bog‘liq. Qishloq hududiga dastlab ko‘chib kelgan aholi tevarak atrof yer osti buloq suvlaridan iborat bo‘lganligi uchun ekinzor va bog‘larni sug‘orishda muammolarga uchramagan. Qor, yomg‘ir va oqar suvlar tektonik harakatlar natijasida qishloq hududida yerlarni yorilishi, nurashi oqibatida yoriq suv havzalarini vujudga keltirgan va ko‘plab zilol suvli chashmalar paydo bo‘lgan. Yoriq suv manbalari atrofida paydo bo‘lgan qishloq esa Yorilgan qishlog‘i deb nomlangan. Kadastr xujjatlari mavjud.

3	Qabriston	Past yorilgan	Nurafshon MFY	Past yorilgan	Yorilgan. Yorilgan qishlog‘ining vujudga kelishi qishloq o‘rnining geografik joylashuvi bilan bog‘liq. Qishloq hududiga dastlab ko‘chib kelgan aholi tevarak atrof yer osti buloq suvlaridan iborat bo‘lganligi uchun ekinzor va bog‘larni sug‘orishda muammolarga uchramagan. Qor, yomg‘ir va oqar suvlar tektonik harakatlar natijasida qishloq hududida yerlarni yorilishi, nurashi oqibatida yoriq suv havzalarini vujudga keltirgan va ko‘plab zilol suvli chashmalar paydo bo‘lgan. Yoriq suv manbalari atrofida paydo bo‘lgan qishloq esa Yorilgan qishlog‘i deb nomlangan. Kadastr xujjatlari mavjud.
4	Qabriston	Abdullo Buruq	Gaiston MFY	Abdullo Buruq	Ushbu ob’ekt sharqdan yorilgan MFY, g‘arbdan Kosonosoy tumani bilan chegaradosh. Rivoyatlarga ko‘ra Arab saxobalaridan bir urug‘ning vakillari Islom dinini da’vat qilish uchun bu yerga kelganlar. Kofirlar bilan bo‘lggan jangda Abdullox bir urug‘ining jangchilari chekinadi shunda ular turgan adirlik poyida yer yorilib g‘or paydo bo‘ladi va Abdullox bir urug‘i vakillari ushbu g‘orga kirib g‘oyib bo‘ladilar. Abdullox bir urug‘ nomi o‘tmishdagi ota-bobolar mehnatidan yodgorlik sifatida saqlanib qolingan. Kadastr xujjatlari mavjud.

5	Qabriston	O‘rta Gayiston	Gaiston MFY	O‘rta Gayiston	Gayiston. Adir etaklaridagi tekisliklarning asosiy qismida sizot suvlari yuqorida bo‘lganligi uchun yerlari sho‘rxok. Aholi bu yerda qadimda chorvachilik, ayniqsa, zotli otlarni yetishtirish va parvarishlash bilan mashg‘ul bo‘lgan. Atrofdagi shahar va qishloqlardan savdogar va chorvadorlar bu yerga kelib, ot xarid qilishgan. Qishloqda otlarni boqish, parvarishlash uchun alohida binolar barpo etilgan. Yilqichilik bilan shug‘ullangan qishloq aholisini sayislar, ular istiqomat qilgan manzilgohni esa Sayisgon, Sayiston, keyinchalik Gayiston deb atay boshlaganlar. Sayis, so‘zini arabchadan tarjima qilinsa, otboqar ma’nosini bildiradi, gon so‘zi esa - joy, makon ma’nosini bildiradi. Qadimda O‘rta Osiyo xonliklarida harbiy va xo‘jalik extiyojlari uchun saqlangan otlarni boquvchi va ularni nazorat qiluvchilarni sayis deb nomlashgan. Sayislar otxonalar yoniga qurilgan maxsus uy, «sayisxona»da yashaganlar. Kadastr xujjatlari mavjud.
6	Qabriston	Qamishok	Gaiston MFY	Qamishok	Ushbk hudud soyga yaqin,er osti sizot suvlari yuqori, botqoqlik, to‘qay va qamishzorlardan iborat bo‘lgan.Ayniqsa qamishzorlarni ko‘pligi uchun bu joy Qamishli, Qamishzor, Qamishloq, Qamishoq deb atalgan. Bu yerga ko‘chib kelgan aholi yerlarni o‘zlashtirish uchun qamishlarni yo‘qotib, botqoqliklarni quritishga ko‘p kuch va mehnat sarflaggan. Natijada yangi yerlar ochilgan va ular o‘zlashtirilib, serxosil ekinzor, dalalar paydo bo‘lgan bo‘lsada, tarixda Qamishoq nomi o‘tmishdagi ota-bobolar mehnatidan yodgorlik sifatida saqlanib qolingan. Kadastr xujjatlari mavjud.
7	Qabriston	G‘aybaral-2	Yangiobod MFY	G‘aybaral-2	Bekobod qishlog‘idagi yonma-yon joylashgan ikki qabristondan iborat. Qabriston juda qadim zomonlarda paydo bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, avliyolardan biri dushmanlardan qochib, shu yerda g‘oyib bo‘lgan. G‘aybaral yoki G‘oyiborol nomi shundan qolgan. Kadastr xujjatlari mavjud.

8	Qabriston	Oqtepa	Yangiobod MFY	Oqtepa	Oqtepa Yangiobod qishlog‘i xududida joylashgan. Tepalik tarkibi asosan tog‘ ohak toshlaridan iborat bo‘lganligi uchun oq tusga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tabiiy tepalik bo‘lgan mazkur qabristonga Oqtepa nomi berilgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
9	Qabriston	Qizilkiyok	Qizilqiyoq MFY	Qizilkiyok	**Qizilqiyoq.** Ta’kidlanishicha, Qishloq hududi tepaliklari, kiya–yonbag‘irlarda qiyoq o‘simligi o‘sgan va kiyaliklar qizil rangga burkangan va kizil rangda tovlanib turgan. Aholi bu xududlarni “qiziltepa”, “qizilqiya” tepaligi deb nomlashgan va vaqt o‘tgan sari “qizilqiyoq” degan nom kelib chiqgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
10	Qabriston	Mangulik	Qizilqiyoq MFY	Mangulik	Mangulik-Abadiylik, abadiyat ma’nolarini anglatib, xududdagi axoli tomonidan marxumlar ushbu makonda abadiy qo‘nim topishini niyat qilib ushbu nom berilgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
11	Qabriston	Past Qizilqiyoq	Qizilqiyoq MFY	Past Qizilqiyoq	Qizilqiyoq. Qizilqiyoq qishlog‘i eng qadimiy tarixga ega bo‘lgan qishloqlardan biri sanaladi. O‘tmishda qishloqqa qiyot urug‘ining janubiy guruxlari kelib o‘rnashganlar. Qadimiy turkiy tilda Qizil so‘zi –Janub ma’nosini bildirgan. Shu sababdan qishloqqa ko‘chib kelgan aholini urug‘ nomi bilan qizilqiyotliklar, qishloqni esa Qizilqiyot sekin-asta Qizilqiyoq deb nomlangan. Qizilqiyotliklar qishloq o‘rni soy va ko‘l sohillaridagi to‘qay va botqoqliklardan iborat bo‘lganligi sabab, dastlab ovchilik, chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Bora-bora aholi to‘qayzor va qamishzorlarni yo‘qotib, yerlarni o‘zlashtirganlar. Ekinzor dalalar, bog‘ va uzumzorlar paydo bo‘lgan, qishloq kengayib, aholi soni ko‘paygan. Shuningdek, ba’zi manbalarda qishloqni nomlanishi hududdagi botqoqliklar, ko‘l va soy qirg‘oqlarida o‘sgan past bo‘yli, tanasi qizil o‘simliklar, qizilqiyoqlar nomi bilan ham bog‘lanadi. Kadastr xujjatlari mavjud.
12	Qabriston	Changalmozor	Buloqboshi MFY	Changalmozor	Changalmozor qabristoni 1920 yillarda changalzor tepalikka barpo etilgan bo‘lib, shu tepalik nomi bilan Changalmozor qabristoni deb yuritiladi. Kadastr xujjatlari mavjud.

13	Qabriston	Amir buva	Buloqboshi MFY	Amir buva	Navkent qishlog‘inining Buloqboshi aholi manzilgoxida joylashgan qabr. Qabrga Soxibkaromat avliyo Amir buva dafn etilggan. Qabr o‘zining boshqa qabrlardan o‘lchami jixatidan kattaligi (Qabr 7x3 o‘lchamda) bilan ajralib turadi. Amir ota qishloq aholisini suv bilan ta’minlash maqsadida, yer osti suvlari bor yerlarni aniqlab, xassasi yordamida suv yo‘liga chiziv tortgan. Chiziq tortilgan yerlardann buloq suvlari oqib chiqqan. Kadastr xujjatlari mavjud.
14	Qabriston	To‘raxon	O‘rta MFY	To‘raxon	Aytilishicha, To‘raxon qabristoni atamasi 2003 yil boshlarida ushbu hududda yashab ijod etgan shaxs nomi bilan bog‘liq bo‘lib, qabriston barpo etilishida ushbu shaxsni qabristonga birinchi bo‘lib dafn etilgan va aholi tomonidan To‘raxon qabristoni deb nomlangan. Kadastr xujjatlari mavjud.
15	Qabriston	Saidjaloliddin	G‘ovozon MFY	Saidjaloliddin	Saidjaloliddin To‘sqobilbuva shaxsi bilan bog‘liq. U zotning islom dinini targ‘ib qilishda ko‘p mexnati singgan. Nomini abadiylashtirish maqsadida qabristonga Saidjaloliddin nomi berilgan Kadastr xujjatlari mavjud.
16	Qabriston	Toyloq	G‘ovozon MFY	Toyloq	Islom tarixida qirg‘iz va qipchoq millatiga mansub bo‘lgan xalq orasida Katta bobolar Toy ota nomi bilan atalgan. Mazkur xududdayashagan katta yoki ulug‘ bobo shu qabritongsa birinchi bo‘lib dafn etilganligi uchun ham uchun ham mahallada joylashgan qabriston ***Toyloq ota qabristoni*** nomi bilan atalib kelgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
17	Qabriston	Ketmonchi	Oqsuv G‘ovozon MFY	Ketmonchi	Qishloq o‘tmishda ziroatchilik bilan shug‘ullanadigan chorakor dehqonlar yashaydigan manzilgoh bo‘lganligi uchun ham mazkur xuddudda yashab vafot etgan kishilar dafn etilgan qabriston ***ketmonchi qabristoni*** deb atalgan. Shuningdek, Oqsuv G‘ovozonda yashagan, maxallada ketmon yasash bilan shug‘ullangan temirchi oqsoqol farzandsiz bo‘lganligi uchun, o‘zining vasiyatida, yashab turgan hovlisini qabriston qilinishini so‘ragan va o‘sha qabristonga dafn qilingan. Kadastr xujjatlari mavjud.

18	Qabriston	Saidxo‘ja	Oqsuv g‘ovozon MFY	Saidxo‘ja	Aytilishicha, bugungi kunda Yo‘ldoshxoji nomi bilan atalib kelinayotgan Saidxo‘ja qabristoni avliyosifat ulamo odam Saidxo‘ja bilan bog‘liq.U zotning islom dinini targ‘ib qilishda ko‘p mexnati singgan. Vafotidan so‘ng, o‘sha xududda joylashgan qabristonga ushbu shaxs nomini abadiylashtirish maqsadida Saidxo‘ja nomi berilgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
19	Qabriston	Dorilbaqo	Oqsuv g‘ovozon MFY	Dorilbaqo	“Dorilbaqo” arab tilidan olingan bo‘lib abadiy mangulik ma’nolarini beradi. Kadastr xujjatlari mavjud.
20	Qabriston	Shopayz	Bog‘ MFY	Shofayz	Shopayz qabristoni 1890 yillarda barpo qilingan bo‘lib, o‘sha davrda yashab o‘tgan Shopayz ismli islom dinidan chuqur bilimga ega bo‘lgan ulamo-eshon nomi bilan bog‘liq. Arab tilidan yerlik aholini ziyoli qilishdagi xizmatlari uchun ul zotning vafotidan keyin dafn etilgan qabristooga Shopayz nomi berilgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
21	Qabriston	Shahid	Bog‘iston MFY	Shahidlar	Shahid mozor. Shahid mozor Bekobod qishloq fuqarolar yig‘inida joylashgan qabriston. Umumiy maydoni 3 gektardan iborat. Qabriston bundan bir yarim asr avval paydo bo‘lgan. Qishloqdagi turli urug‘larga mansub bo‘lgan aholi o‘rtasida milliy nizolar kelib chiqadi. Nizolar esa qonli to‘qnashuvlarga sabab bo‘ladi. Ana shunday to‘qnashuvlarning birida qishloqda “qipchoq so‘ydi” nomi bilan qatliom bo‘lib, bir kechada qirqdan ortiq odam so‘yib tashlangan va qurbonlar xotirasiga qabriston shunday nomlangan. Kadastr xujjatlari mavjud.
22	Qabriston	Qizbuloq	Bog‘iston MFY	Qizbuloq	Qizbuloq suvi turli tabiiy minerallarga boy bo‘lganligi uchun ham har hil xastaliklarga davo bo‘lgan. Mahalliy aholi buloq suvlaridan faqatgina tabiiy extiyojlarini qondiribgina qolmay undan shifo topib, muqaddas xisoblab, sig‘inib, ziyorat qilib kelishgan. Kadastr xujjatlari mavjud.

23	Qabriston	Ko‘kto‘llik	Sohil MFY	Ko‘kto‘llik	Ko‘kto‘llik. Ko‘kto‘llik Bekobod qishloq fuqarolar yig‘ini hududidagi qabriston. Maydoni 1,5 gektar. Rivoyatlarga ko‘ra arab lashkarboshisi Xoja Mahdiy o‘z lashkarlari bilan qalmoq jangchilariga qarshi shu yerdagi Yettitikan tepaligida jang qilgan. Jangda Xoja Mahdiy qo‘shinlari yengiladi. Uning o‘zi qo‘lga olinib, qatl etiladi. Xoja Mahdiyni mayiti shu yerga dafn etiladi. Lashkarboshi jangga ko‘k tusli bayroq, ko‘k tug‘ ko‘tarib kiradi. Ko‘k tug‘lik iborasi esa keyinchalik ko‘kto‘llikka aylanib ketgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
24	Qabriston	O‘lmas buva	Sohil MFY	O‘lmas buva	Islom tarixida o‘zbeklar orasida Hazrati Ali raziyallohu anhuning xotinlari Fotima raziyallohu anhodan boshqa xotinlaridan tug‘ilgan farzandlari “Xo‘ja” deyiladi. Mazkur xududda xo‘jalar avlodiga mansub bo‘lgan Xo‘ja O‘lmas ismli kishi yashaganligi va uning sa’y harakatlari bilan qishloq bunyodga kelganligi uchun ham mahallada joylashgan qabriston ***O‘lmas qabristoni*** nomi bilan atalib kelgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
25	Qabriston	Saidkamol (Saidkalon) Termiziy	Bo‘ston MFY	Saidkalon (Saidkalon) Termiziy	**Saidkalon Termiziy.** Hozirgi Termizdan bu yerga ko‘chib kelgan aka-uka Said bobo va Saidkalon termiziylarning nomlari bilan bog‘liq. Aka-uka termiziylar bu yerlarga ko‘chib kelganlaridan so‘ng ariq qazib qishloqning yuqori qismidagi buloqlardan suv keltirganlar. Qo‘riq yerlarni o‘zlashtirib, bog‘ barpo etganlar. Hozirgi qishloq kasalxonasi o‘rnida yashab, u yerni obod qilganlar. Said bobo va Saidkalon Termiziylarning bog‘lari kengayib bog‘ atroflariga aholi ko‘chib kelib, yangi aholi yashash manzilgohi vujudga keladi. Ko‘chib kelgan aholi aka-ukalar boshchiligida ekin yerlari va bog‘larni, ayniqsa, o‘rikzorlarni yanada kengaytirganlar. Kadastr xujjatlari mavjud.

26	Qabriston	Saidbobo Termiziy	Bo‘ston MFY	Saidbobo Termiziy	**Saidbobo Termiziy.** Hozirgi Termizdan bu yerga ko‘chib kelgan aka-uka Said bobo va Saidkalon termiziylarning nomlari bilan bog‘liq. Aka-uka termiziylar bu yerlarga ko‘chib kelganlaridan so‘ng ariq qazib qishloqning yuqori qismidagi buloqlardan suv keltirganlar. Qo‘riq yerlarni o‘zlashtirib, bog‘ barpo etganlar. Hozirgi qishloq kasalxonasi o‘rnida yashab, u yerni obod qilganlar. Said bobo va Saidkalon Termiziylarning bog‘lari kengayib bog‘ atroflariga aholi ko‘chib kelib, yangi aholi yashash manzilgohi vujudga keladi. Ko‘chib kelgan aholi aka-ukalar boshchiligida ekin yerlari va bog‘larni, ayniqsa, o‘rikzorlarni yanada kengaytirganlar. Kadastr xujjatlari mavjud.
27	Qabriston	Salmon	Salmon MFY	Salmon	Salmon qabristoni XX asrning 90-yillarida barpo etilgan. Salmon so‘zining kelib chiqish tarixi XV-XVI asrlarga borib taqaladi. Iskovot qishlog‘i Ipak yo‘lida joylashganligi uchun kelgan karvonlar Iskovot markazida to‘xtab o‘tgan, lekin ayrim tijoratchilar karvonsaroylarga o‘xshash bo‘lgan qo‘noqlarda xam to‘xtalib o‘tishgan. Ya’ni iskovot markazidagi karvonsaroylarga **sal-monand** bo‘lgan joylarda tunashgan. Vaqtlar o‘tgach Sal monand so‘zi Salmon so‘ziga o‘zgargan. Kadastr xujjatlari mavjud.
28	Qabriston	Gaznon	Gaznon MFY	Gaznon	Gaznon. Gaznon qishlog‘i Iskovot qishlog‘ining shimolida, O‘zak va Yangihayot qishloqlarining janubiy qismida joylashgan. Gaznon qishlog‘i atrofdagi boshqa qishloqlardan ancha olis masofada joylashganligi uchun dehqon va chorvadorlar savdo uchun qishloqdan chetga chiqishga majbur bo‘lgan. Ular safarga chiqqanlarida faqat shu qishloqqa xos bo‘lgan, kattaligi yarim va bir gaz atrofida bo‘lgan nonlarni o‘zlari bilan birga olib ketganlar. Bunday katta nonlarni ko‘rgan kishilar nonni “gaznon”, qishloq aholisini esa gaznonliklar deb atashgan. Shundan qishloq nomi ham Gaznon bo‘lib ketgan. Kadastr xujjatlari mavjud.

29	Qabriston	Qandiyon	Qandiyon MFY	Qandiyon	**Qandiyon.** Dehqonlar adir yerlariga alohida navli qayroqi bug‘doy ekishgan. Adirda yetishtirilgan bug‘doy unidan tayyorlangan non nihoyatda shirin bo‘lganligi uchun qishloq shirin nonga nisbat berib, “Qandinon”, keyinchalik esa Qandiyon deb atala boshlaydi. Kadastr xujjatlari mavjud.
30	Qabriston	Guliston	Guliston MFY	Guliston	Ta’kidlanishicha, Guliston qabristoni mahalliy aholi talab va istaklaridan kelib chiqib, Guliston mahalla fuqarolar yig‘ini nomiga uyg‘un tarzda nomlangan. Avvaldan o‘rik bodom, olma, nok daraxtlari baxor faslida gullab chiroyli ko‘rinish kasb etganligi sababali qabristonga ushbu nom berilgan Kadastr xujjatlari mavjud.
31	Qabriston	Otakishi ota	Madaniyat MFY	Otakushot	Otakishi ota qabristoni Otakishi ismli shaxs nomi bilan bog‘liq. 1890-1956 yillarda yashab o‘tgan bog‘bon, avvalgi Zang massivini bog-rog‘ qilib o‘zlashtirishda qilishda mexnati beqiyos bo‘lgan. Nafaqat qabriston, balki aholi yashash manzilgohi ham ushbu nom bilan ataladi. Kadastr xujjatlari mavjud.
32	Qabriston	Shilvi	Furqat MFY	Shilvi	Shilvi. Tabiiy ofatlar natijasida har yili ekinzorlarni tozalash va sovuq shamollar, qor bo‘ronlari ta’sirida nobud bo‘lgan nihollarni qaytadan ekishga majbur bo‘lganlar. Aholi qishloq va ekinzorlarni himoya qilish uchun shilvi butalarini ekib, ihotazorlar barpo etganlar. Natijada, qishloqni shilvizor, keyinchalik Shilvi degan nom bilan atay boshlaganlar. (Shilvi, uchqat –Lonicera, deb nomlanib, shilvidoshlar oilasiga mansub butalar turkumiga kiradi. Sharqiy Osiyoda 200 ga yaqin turi tarqalgan. Shundan O‘zbekistonda 20 dan ortiq turi o‘sadi. Shilvi cho‘l hududlarida ihota daraxtzorlari qilish maqsadida ko‘plab ekiladi. Undan yashil devor sifatida ham foydalaniladi.) Kadastr xujjatlari mavjud.
33	Qabriston	Yakkatut	Qorayontoq MFY	Yakkatut	Bu nom xozirda xam **yakka** xolda o‘sib turgan ko‘p asrlik tut daraxti nomi bilan bog‘liq. Xozirda Yakkatut qabristoni deb ataladi. Kadastr xujjatlari mavjud.

34	Qabriston	Uchqo‘rg‘on	Qorapolvon MFY	Uchqo‘rg‘on	Qadimda ushbu xududda 1820 yillarda yashab o‘tgan Xusanxon, Ibroximxon va Mukarram Eshonxo‘ja ismli aka-ukalarning 3ta qo‘rg‘oni mavjud bo‘lib, axoli yashab dafn etilgan qabriston Uchqo‘rg‘on nomi bilan atala boshlangan. Kadastr xujjatlari mavjud.
35	Qabriston	Qorapolvon	Qorapolvon MFY	Qorapolvon	Mazkur qabriston Qorapolvon qishlog‘ida joylashgan. Xozirggi qishloq o‘rniga atrof xududlardan odam ko‘chib kelib, qamishzorlar, to‘qayzorlar yo‘qotilib yerlar o‘zlashtirilggan. Ko‘chib kelggan aholi yashish uchun yerto‘la va paxsa uylarni qura boshlaganlar. Qishloqqa asos solinib, uning atrofi paxsa devor bilan o‘rab olingan. Bu xududga dastlab ko‘chib kelgan o‘qimishli, xunarmand, polvon ustani mahalli holi o‘ziga “Biy” etib saylagan va shu tariqa qishloq boshqaruvi vujudga kelggan. Qishloq tobora kengayib kattalasha borgan. Qishloq o‘z Biyini ulug‘, katta, baxodir- “**Qorapolvon”** deb atay boshlagan. (“Qora”-so‘zi qadimgi turk tilida “Ulug‘-buyuk” ma’nolarini anglatggan.) Kadastr xujjatlari mavjud.
36	Qabriston	Buloq ko‘cha	Qorapolvon MFY	Buloq ko‘cha	Shu qabriston joylashgan tepalikning quyi qismidan buloq sizib chiqqan va ushbu buloqdan bugungi kunda xam axoli foydalanib kelmoqda. Ushbu buloq chiqqan ko‘chaning nomi Buloq ko‘cha deb ataladi. Va shunga mos ravishda, Buloq ko‘cha qabristoni deb yuritiladi. Kadastr xujjatlari mavjud.
37	Qabriston	To‘psada	Quyi Qorapolvon MFY	To‘psada	To‘psada qabristoni katta yo‘l yoqasida o‘sgan uch tup sada daraxti nomi bilan bog‘liq bo‘lib, xozirda shu xududda To‘psada axoli yashash manzilgohi mavjud. Kadastr xujjatlari mavjud.
38	Qabriston	Qonaqboy	Rovot MFY	Qonaqboy	Qabriston Rovot MFY xududining adirlik qismida joylashgan bo‘lib, Rovot qishlog‘ida yashagan Qo‘naqboy ismli Eshon bilan bog‘liq. Ushbu shaxsning ilmi va xududdagi mavqeidan kelib chiqib, vafotidan so‘ng ushbu nom abadiylashtirilgan. Kadastr xujjatlari mavjud.

39	Qabriston	Buvaixandon	Yumaloq tepa MFY	Buvaixandon	Buvai Handon (Boboi Handon) Islom dinini mahalliy aholi o‘rtasida targ‘ib etish uchun xalifalik tomonidan yuborilggan ko‘p sonlik daavatchilardan biri bo‘lgan. Boboi Handon nomi bilan mashxur bo‘lggan Shayx Nuriddin boshchiligida masjid barpo qilingan. Shayx Boboi Handon vafot etgach uni o‘zi barpo etgan masjid binosining sharq tomonidagi tepalik ustiga dafn etilgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
40	Qabriston	Toshqo‘rg‘on	Xurriyat MFY	Toshqo‘rg‘on	Aytilishicha, ushbu qabriston toshloq massiviga joylashganligi uchun Toshli Qo‘rg‘on deb yuritilgan. XIX-asrning oxiri va XX-asrning boshlarida barpo etilgan. Keyinchalik Toshqo‘rg‘on nomiga aylangan. Unumdor yerlarni band qilmaslik maqsadida qabriston toshloq adir xududiga barpo etilgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
41	Qabriston	Yakka terak	Navkent MFY	Yakka terak	Zamondosh keksalarning aytishiga qaraganda, 1700-1800 yillarda xozirgi Yakkaterak qabristoni joylashgan tepalikda yoshi asrlarga teng bir tup terak daraxti o‘sgan bo‘lib, ushbu daraxt maxalliy axoli tomonidan juda uzoq yashaganligi sabab iloxiylashtirilgan. Hamda shu tepalikka Yakkaterak kabristoni nomi berilgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
42	Qabriston	Qilich burxon	Navkent MFY	Qilich burxon	Rivoyatlarga ko‘ra, Burxon ismli o‘ta chapdast, “Qilich” taxallusi bilan mashxur bo‘lgan, xalq orasida tanilgan shaxsning nomiga qo‘yilgan. Shuningdek Qozog‘istonda ham ushbu nom bilan ataladigan qabriston mavjud bo‘lib, o‘sha qabristonga ham shu kishining nomi berilgan, deb taxmin qilinadi. Kadastr xujjatlari mavjud.
43	Qabriston	Xo‘jamurob	Yuqori Navkent MFY	Xo‘jamirob	Asli xoji mirob nomi bilan xalq orasida tanilgan ushbu shaxs asosan Buloqboshi buloqlaridan adirliklarni sug‘orish uchun soyni bo‘g‘ib, suvni ko‘tarib, nov orqali olib kelingan suvni axoli yerlariga taqsimot qilish, ya’ni **mirobchilik** bilan shug‘ullangan. Vafotidan so‘ng tepalikdagi xozirda yo‘q bo‘lib ketgan masjid atrofiga dafn qilingan bo‘lib, shu yerdagi qabriston ham shu kishi nomi bilan atalgan. Kadastr xujjatlari mavjud.

44	Qabriston	Xo‘januriddin	Cho‘ngbag‘ish MFY	Xo‘januriddin	Islom tarixida o‘zbeklar orasida Hazrati Ali raziyallohu anhuning xotinlari Fotima raziyallohu anhodan boshqa xotinlaridan tug‘ilgan farzandlari “Xo‘ja” deyiladi. Mazkur xududda xo‘jalar avlodiga mansub bo‘lgan tabaqa vakillari yashaganligi va ularning sa’y harakatlari bilan qishloq bunyodga kelganligi uchun ham mahallada joylashgan qabriston ***Xo‘ja Nuriddin qabristoni*** nomi bilan atalib kelgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
45	Qabriston	Qizmozor	Sutlibuloq MFY	Qizmozor	Ushbu mozor 1943 yilda barpo etilgan bo‘lib, Sutlibuloq axoli yashash manzilgoxida yashab o‘tgan diniy ilmga ega bo‘lgan Mamatbuvaning qizi vafot etganda birinchi bo‘lib ushbu qabristonga dafn etilgan xamda qabriston Qizmozor nomi bilan atab kelingan. Kadastr xujjatlari mavjud.
46	Qabriston	Tillamozor	Xaqiqat MFY	Tillamozor	Ushbu qabristonga birinchi bo‘lib dafn etilgan Nizom ismli shaxs nomi bilan yuritilgan “Nizommozor”, keyinchalik “Tillatepa” Arxeologik yodgorligi yonida joylashganligi sababli Tillamozor nomiga o‘zgartirilgan. Tillatepa tepaligining tabiiy yoki sun’iy tarzda barpo etilganligi xususida ilmiy tadqiqot, kuzatuv ishlari o‘tkazilmagan, uning tuzilishi va chegaralari aniqlanmagan. Tepalik tarkibi qum va tuproq aralashmasidan iborat. Ayrim yozma manbalarda tepalik qadimda kuzatuv maskani bo‘lganligi qayd etilgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
47	Qabriston	Xadikent	Xadikent MFY	Xadikent	Xadikent. Arab tilidan “Xod”- to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi, to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, yetakchi, yo‘lbshchi, pir, raxnamo ma’nolarini anglatadi. “Kent” esa qishloq ma’nosini beradi. Qabriston nomi qishloq nomiga monand ravishda qo‘yilgan. Kadastr xujjatlari mavjud.

48	Qabriston	Qurama	Xadikent MFY	Qurama	Qurama. Mahalliy va ko‘chmanchi aholining aralash oilalari hozirgi Qurama qishlog‘i o‘rnida yangi manzilgoh barpo etganlar hamda qishloqni Qurama qishlog‘i deb nomlaganlar. Yalong‘och va Qurama qishloqlarining aholisi mohir chorvador va chorvachilik mahsulotlaridan kigiz, gilam, arqon, qayish, charm, qo‘y-echki terisidan po‘stin, telpak, etik, kovush, qora uy-o‘tovlar tayyorlaydigan usta hunarmand bo‘lganlar. Ular mahalliy aholi bilan aralashib ketgach dehqonchilik, bog‘dorchilik bilan ham shug‘ullana boshlaganlar. Kadastr xujjatlari mavjud.
49	Qabriston	Yalong‘och	Xadikent MFY	Yalong‘och	Yalong‘och. Yalong‘och qishlog‘i 15-asrlarda vujudga kelgan. U Yuqori, O‘rta va Quyi Yalong‘och qishloqlaridan iborat bo‘lgan. Qishloq o‘rni chorvachilik uchun qulayligi tufayli bu yerlarga qozoq ovullaridan ko‘plab chorvador oilalar ko‘chib kelgan. Ular asosan qipchoqlarning yalong‘och urug‘iga mansub aholi bo‘lganligidan, qishloq ularning nomi bilan Yalong‘och qishlog‘i deb atalgan. Ko‘chib kelgan aholi bilan mahalliy xalq vakillari asta-sekin yaqinlashib, qarindoshlik munosabatlari paydo bo‘lgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
50	Qabriston	Abdug‘ofir ota	Dehqonobod MFY	Abdug‘ofir ota	.Islom tarixida o‘zbeklar orasida Hazrati Ali raziyallohu anhuning xotinlari Fotima raziyallohu anhodan boshqa xotinlaridan tug‘ilgan farzandlari “Xo‘ja” deyiladi. Mazkur xududda xo‘jalar avlodiga mansub bo‘lgan tabaqa vakillari yashaganligi va ularning sa’y harakatlari bilan qishloq bunyodga kelganligi uchun ham mahallada joylashgan qabriston***Mulla Abdug‘affor ota qabristoni*** nomi bilan atalib kelgan. Kadastr xujjatlari mavjud.

51	Qabriston	Oqtom	Mo‘g‘ol MFY	Oqtom	Oqtom. Oqtom qishlog‘ining tarixi bundan 1300 yil avvalgi tarixiy voqealar bilan bog‘liq. Ayni vaqtda qishloq tarixi bilan bog‘liq qator afsona va rivoyatlar hozirga qadar xalq orasida aytib kelinadi. “...Rivoyatlarga ko‘ra Oqtom qishlog‘ining kelib chiqishi Hazrat Ali bilan bog‘lanadi. Hazrat Ali do‘sti Aqtam Sahoba bilan ovga chiqib bir joyda uxlab qoladi. Aqtam Sahoba oldidan chiqib qolgan ohuni quvib ketayotib dushman lashkarlariga duch keladi. Makotil boshliq dushmanlar Aqtam Sahobaga Hazrat Alini o‘ldirmoqchi bo‘lib ketayotganliklarini aytadilar. Do‘stini o‘limdan saqlab qolish maqsadida Aqtam Sahoba ularga: “Men Hazrat Aliman”, -deb javob beradi. Dushmanlar tengsiz jangda Aqtam Sahobaning boshini tanasidan judo etganlar. Hazrat Ali uyg‘ongach, do‘stini qidirib uning jasadini topadi. Dushmanlardan qasd olgach, Hazrat Ali do‘sti Aqtam Sahobani shu yerga dafn etadi. Keyinchalik qishloq Aqtam Sahoba sharafiga Oqtom deb nomlangan...”. ”(Yu.Qirg‘izov, T.Akramov. “Bir o‘lkaki”. 1996 yil.“Namangan” nashriyoti) Oqtom qishlog‘i oppoq qorlar bilan qoplangan baland tog‘lar etagida joylashganligi uchun qishloqni Oqtov, Oqtog‘ keyinchalik esa Oqtom deb atalgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
52	Qabriston	Mamay	Mamay MFY	Mamay	Mamay. Mamay qishlog‘i xududiga bundan 800-850 yil muqaddam hozirgi Toshkent viloyatining Chotqol tog‘i etaklarida yashagan chorvador qirg‘iz, qipchoq urug‘larining oilalari ko‘chib kelib joylashganlar. O‘sha vaqtda qishloq o‘rni to‘qayzor, tog‘ oldi yaylovlaridan iborat bo‘lgan. Dastavval ovchilik chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lgan aholi to‘qaylarni o‘zlashtirib, ariqlar chiqarishgan, yangi yerlarni o‘zlashtirib dehqonchilik qila boshlaganlar. Daraxt ekib, bog‘lar barpo etganlar. Mahsulotlarini atrof qishloqlardagi bozorlarga olib borganlar. Qishloq kengayib, uni boshqarish uchun qirg‘iz urug‘i boshlig‘i Mamayni qishloq biyi etib saylaganlar. Qishloq ham qirg‘iz biyi nomi bilan Mamay qishlog‘i deb nomlangan. Kadastr xujjatlari mavjud.

53	Qabriston	Qizilyozi	Qizilyozi MFY	Qizilyozi	Qizilyozi. Qizilyozi qishlog‘i Podshootasoyining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, qishloqqa 15-asrda asos solingan. Qishloqni nomlanishiga bog‘liq bir necha rivoyat va afsonalar mavjud. Chunonchi, ayrim manbalarda o‘zbek xalq dostoni “Yozi bilan Zebo”dagi qahramonlarning qishloq hududini makon tutganliklari uchun dostondagi Yozi bilan Zebo nomidan qishloqni Qizilyozi deb atalgani ta’kidlanadi. Yoki, talonchilar ta’qibidan qochib kelgan qizning qishloqdagi muqaddas daraxt ostida ko‘zdan g‘oyib bo‘lganligi uchun qishloq shunday nomlangan degan rivoyat ham bor. Shuningdek boshqa bir manbada xon xaramidagi kanizaklar yoz oylarida qishloqdagi daraxtzor, salqin, so‘lim oromgohlarda dam olib, tiniq soy suvida cho‘milib, yoz jaziramasidan saqlanishgan. Shundan bu maskan “qiz yozi”, keyinchalik esa Qizilyoziga aylangan. Shuningdek, rivoyatlarga ko‘ra qishloqda kelib chiqishiga ko‘ra arab bo‘lgan Hizryozi nomli avliyo yashaganligi qayd etilgan. Qishloq nomi esa avval avliyo nomi bilan bog‘lab Hizryozi keyinchalik Qizilyozi deb nomlangan. Kadastr xujjatlari mavjud.

54	Qabriston	Poromon	Poromon MFY	Poromon	Poromon. Avliyo Hazratishoh buva arablar bostirib kelgan davrlarda urushdan nolib, Namangan shahridan chiqib ketadi. Tarki dunyo qilib, qalandarlik yo‘lini tutgan Hazratishoh buva Ollohdan yashash uchun osoyishta bir manzilgoh so‘raydi. Shunda Avliyoga, -“Osmondan pora non tushgan joy sening manzilgohing bo‘lsin”, -degan xabar keladi. Qishloqdagi hozirgi “tutmozor” oldiga osmondan yarimta (pora) non kelib tushadi va Hazratishoh buva shu yerga chayla qurib yashay boshlaydi. Atrofga ko‘chib kelgan oilalardan qishloq tarkib topadi. Qishloq Poromon, aholi esa poromonliklar deb atala boshlangan. .Shuningdek, qishloq toponimikasi bo‘yicha “Poranon”, “Qoranon” to‘g‘risidagi rivoyatlar ham mavjud. Aslida qishloq tog‘ yonbag‘rida joylashganligidan uni ayvondagi piramonga o‘xshatishgan va piramondagi qishloq deb atashgan. Piramon so‘zidan esa Poromon qishlog‘i nomi paydo bo‘lgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
55	Qabriston	Toshtepa	Oqtepa MFY NOV MFY	Toshtepa	Ushbu qabristonni Toshtepa deb atalishiga sabab, Toshtepa axoli yashash manzilgohining shimoliy qismida eni 50metr, uzunligi 100 metr, bo‘yi 15-20 metr balandlikdagi Tosh dan iborat do‘nglik (tepa) bor. Ushbu tepalikdan mo‘ljal sifatida foydalanilib kelingan va qabriston xam mos ravishda Toshtepa deb atalgan. Ushbu qabristonga 1910-1915 yillardan boshlab marxumlar dafn qilina boshlangan. Kadastr xujjatlari mavjud.
56	Qabriston	Nov	Nov MFY	Nov	Nov. Bahor va yoz oylarida tog‘dan tushgan sel, suv toshqinlari qishloqqa katta zarar keltirgan. Qishloq aholisi uy-joylarini, chorva hayvonlarini va ekin yerlarini tabiiy ofatdan asrash uchun selxonalar qurishga hamda sel va toshqinlarni Qoraqurum soyiga o‘tkazib yuborishga majbur bo‘lgan. Sel va toshqin xavfi bartaraf etilgach qishloq aholisi bog‘ va ekinzorlarni sug‘orish uchun Eshonariq suvini yog‘och nov, tarnovlar orqali qishloqqa o‘tkazganlar. Nov va tarnovlar yordamida qishloqqa suv keltirgan aholini novliklar qishloqni esa Nov qishlog‘i deb ataganlar. Kadastr xujjatlari mavjud.

57	Qabriston	Uchyog‘och	Qorasuv MFY	Uchyog‘och	Qabriston Yangiqo‘rg‘on shaharchasi va Sangiston qishlog‘i oralig‘ida joylashgan. O‘tmishda mazkur qabriston joylashgan xudud baland tepalikdan iborat bo‘lganligi uchun ham tungi vaqtlarda yo‘lovchilar yo‘ldan adashmasliklari uchun tepalik ustiga o‘rnatilgan uch yog‘ochdan iborat qurilmaga chiroq osib yo‘lovchilarga yo‘l ko‘rsatilgan. Shundan tepalik nomi uchyog‘och atalgan keyinchalik mazkur tepalik shu nom bilan qishloq qabristoniga aylangan. Kadastr xujjatlari mavjud.
58	Qabriston	Umrmozor	Toshkent MFY	Umrmozor	. Qabriston Yangiqo‘rg‘on shaharchasida joylashgan. Mazkur qabriston joylashgan xudud baland tepalikdan iborat bo‘lib, ayni paytda ushbu qabristonga rusiy zabon millat vakillari ham dafn etib kelingan. Qabristonning musulmon diniga mansub kishilar dafn etilgan qismi Umri mozor qabristoni deb atalgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
59	Qabriston	Kattaqo‘rg‘on	Radivon MFY	Kattaqo‘rg‘on	Zamondosh keksalarning aytishicha, Radivon adirliklardan iborat bo‘lib, ushbu adirliklarda qo‘rg‘onlar bo‘lgan va ushbu qo‘rg‘onlarda axoli yashagan. Qabristonga eltuvchi yo‘l kattaqo‘rg‘on mo‘ljal bo‘lgani uchun ushbu nom berilgan. Kadastr xujjatlari mavjud.
60	Qabriston	Xo‘jaradivon	Radivon MFY	Xo‘jaradivon	Xo‘jaradivon. Mazkur hududda aholi juda qadim zamonlardan beri istiqomat qilib keladi. Qishloqning tabiiy geografik o‘rni, Namangansoyning unumdor har ikki sohili, atrof hududlarni baland uzluksiz adirlar bilan o‘rab olingani odamlarni bu yerda ovchilik, ziroatchilik bilan shug‘ullanishlari uchun zarur shart sharoitlarni yaratib bergan. Shuning uchun mazkur hudud odamlarning ilk manzilgohlariga aylangan. Odamlar dastlab chayla va yerto‘lalarda so‘ngra pahsa va xom g‘ishtdan qurilgan uylarda yashay boshlaganlar. Dastlab ular atrofi bo‘ta va to‘qay o‘simliklari bilan tabiiy ixotalangan. Xo‘jaradivon deb atalishiga sabab, oddiy axoli vakillari u qabristonga dafn qilinmagan. Faqat xo‘jalar dafn etilgan, deyiladi. Kadastr xujjatlari mavjud.

61	Qabriston	Radivon	Radivon MFY	Radivon	Radivon. Mazkur hududda aholi juda qadim zamonlardan beri istiqomat qilib keladi. Qishloqning tabiiy geografik o‘rni, Namangansoyning unumdor har ikki sohili, atrof hududlarni baland uzluksiz adirlar bilan o‘rab olingani odamlarni bu yerda ovchilik, ziroatchilik bilan shug‘ullanishlari uchun zarur shart sharoitlarni yaratib bergan. Shuning uchun mazkur hudud odamlarning ilk manzilgohlariga aylangan. Odamlar dastlab chayla va yerto‘lalarda so‘ngra pahsa va xom g‘ishtdan qurilgan uylarda yashay boshlaganlar. Dastlab ular atrofi bo‘ta va to‘qay o‘simliklari bilan tabiiy ixotalangan. Odamlar o‘z uy-joylarini adir oldi past-tekisliklariga ko‘chirgach aholi manzilgohlarining bir tomoni tepaliklar bilan qolgan uch tomoni esa pahsa va xom g‘ishtlardan ko‘tarilgan devorlar bilan urab olingan. Aholining asosiy mashg‘uloti ziroatchilik va chorvachilikdan iborat bo‘lib qolgan. Asta-sekin ular orasidan hunarmandlar guruhi ajralib chiqa boshlagan. Hunarmandchilik sohalarga bo‘linib, kulolchilik, temirchilik, kosibchilik, ip, ipak, jun va teri maxsulotlarini qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchilar soni orta borgan. Kadastr xujjatlari mavjud.

62	Qabriston	Qizariq	Radivon MFY	Qizariq	Qizariq. Radivon qishlog‘i kengayib oilalar soni orta borgach 18-asrning oxirlarida aholining bir qismi qishloqning shimoliy tomoniga ko‘cha boshlagan. Ko‘chib borgan oilalar to‘qay va qamishzorlarni o‘zlashtirib dehqonchilik qilganlar. Adir yerlarni tekislab bog‘lar barpo etganlar. Ular ekinzor va bog‘larni shu atrofdagi buloq suvlari bilan sug‘organlar. Biroq, dehqonchilikni kengayishi suvga bo‘lgan ehtiyojni orttirgan. Qorapolvon biy qishloqdagi zabardast, pahlavon yigitlardan qirq nafarini ariq qazib, suv chiqarish uchun safarbar etgan. Yigitlar qattiq, zarang yerni kovlab, ariq ochish uchun ko‘p mehnat sarflasalarda, ariqdan suv yurmaydi. Qishloq oqsoqolining Bibisora ismli o‘qimishli, dono, jasur va pahlavon qizi bo‘lib, u yigitlar uxlab yotganida ariq o‘zanini noto‘g‘ri yo‘nalishda qazilayotganligini bilib qoladi. Qiz tezda dugonalarini chaqirib, yigitlar uyqudaligida ariqni yangi yo‘nalishda kovlab bitiradi. Qirq yigit uyqudan turib, yangi qazilgan ariqdan suv oqayotganligini ko‘rishadi. Shundan keyin qishloq ahli ariq va qishloqqa Qizariq deb nom berishadi. Kadastr xujjatlari mavjud.
63	Qabriston	Sherqurvonalvali	G‘ayrat MFY	Sherqurbon Valiy	Sherqurbon vali qabristoni Birlashgan qishlog‘i G‘ayrat mahalla fuqarolar yig‘ini xududida joylashgan o‘rta asrlarga oid qabriston. Islom dini targ‘ibotchilaridan bo‘lgan Sherqurbon vali nomi atalgan. Xozirda harakatdan to‘xtagan. Kadastr xujjatlari mavjud.
64	Qabriston	Tolmozor	Qo‘riq MFY	Tolmozor	Ushbu qabriston 1930 yilda barpo etilgan. Aytishlariga qaraganda, ushbu mozor barpo etilgan xududning atrofi keksa tol daraxtlari bilan o‘ralgan bo‘lib, nomi uzviy ravishda Tolmozor qabristoni deb atalgan. Kadastr xujjatlari mavjud.

65	Qabriston	Nanay	Soy bo‘yi MFY	Nanay	Nanay. Nanay qishlog‘i tarixi 12-13 asrlardan boshlanadi. Qishloq hududidan topilgan qadimiy sopol idishlar, xum va ko‘zalar, jang qurollari: singan qilich dastasi, o‘q yoy uchlari, metall sovut qoldiqlari, ko‘hna qabr toshlari qishloqning qadim tarixi borligidan guvohlik beradi. Shuningdek, Qadimiy Mesopotamiyaliklar va mamlakatimiz xududlarida yashagan Zardushtiylar unumdorlik ilohini Nanay deb atashgan. Ayni paytda qadimgi So‘g‘dliklar ham yetishtirilgan mo‘l hosilni Nanidat ya’ni Nanay ehsoni sifatida qabul qilganlar. “… 1365 yildagi Chinoz yaqinidagi “Jangi loy”dan so‘ng aholining bir qismi Chotqol etaklari, Qurama tog‘lari osha hozirgi Nanay qishlog‘iga kelib o‘rnashganlar. Namangan uezd boshlig‘i, bir necha yil Nanay qishlog‘ida yashagan Nalivkin ham: chorva mollarini boqish uchun Bustonliqning Nanay qishlog‘idan 10 uylik oila ham ko‘chib kelganligini hamda bu joyni ham Nanay deb atalganini ta’kidlagan…”(Yu.Qirg‘izov, T.Akramov. “Bir o‘lkaki”. 1996 yil.“Namangan” nashriyoti) Kadastr xujjatlari mavjud.

66	Qabriston	Ko‘kyor	Ko‘kyor MFY	Ko‘kyor	Ko‘kyor. Ko‘kyor qishlog‘i Nanay qishloq fuqarolar yig‘ini hududidagi qadimiy qishloqlardan biri. Qishloqqa bundan 300-350 yillar muqaddam asos solingan. O‘sha vaqtlarda Qozog‘istonnning Sayram qishlog‘ida yashagan uyg‘ur, qoramurt qabilalari Podshootasoyning hozirgi Ko‘kyor qishlog‘idan oqib o‘tgan o‘ng sohillariga kelib joylashganlar. Soyning chap sohilida yashagan cho‘ngbag‘ish qabilalari yangi ko‘chib kelganlarni “ko‘k yorliklar” qishloqni esa Ko‘kyor deb atay boshlaydilar. Chunki, soyning sayramliklar kelib joylashgan qismi baland jarliklardan iborat bo‘lgan. “....Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida ta’kidlanishicha, ”yor” so‘zi jar, o‘yilgan yer ma’nosini beradi. Bu so‘zdan o‘zbek tilining ayrim shevalarida hozir ham shu ma’noda foydalaniladi. Yortepa, Yorqo‘rg‘on, Yorilgan kabi nomlar ham shu ma’nolarda ishlatilgan...”(Yu.Qirg‘izov, T.Akramov. “Bir o‘lkaki”. 1996 yil.“Namangan” nashriyoti) Kadastr xujjatlari mavjud.

Tuman hokimining maslahatchisi D.Boychaev

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman

Kengashining _____-sonli qaroriga

2-ilova

t/r	Geografik obektning turi	Geografik obektning amaldagi nomi	Joylashgan joyi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izox
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**
1.	**Hiyobon**	Xotira hiyoboni	Vodiy MFY	Xotira	Kadastr xujjatlari mavjud emas.
2.	**Istirohat bog‘i**	Madaniyat va istiroxat bog‘i	Beshbuloq MFY	“Bolajon dunyosi” nomli Madaniyat va istiroxat bog‘i	Kadastr xujjatlari mavjud. Davlat reestriga kiritish kerak
3.	**Maydon**	Yangi O‘zbekiston maydoni	Yuksalish MFY	“Yangi O‘zbekiston” maydoni	Kadastr xujjatlari mavjud emas.
1.	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Otaxontepa O‘rta asrlar	Nanay qishloq	Otaxontepa	Otaxon tepa. Otaxontepa Nanay qishlog‘i hududida joylashgan. Tepalikning tabiiy yoki sun’iy tarzda barpo etilganligi xususida ilmiy tadqiqot, kuzatuv ishlari o‘tkazilmagan, uning tuzilishi va chegaralari aniqlanmagan. Tepalik tarkibi tosh va tuproq aralashmasidan iborat. Ayrim yozma manbalarda tepalik qadimda kuzatuv maskani bo‘lganligi qayd etilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida
2.	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Mirzayortepa O‘rta asrlar	Nanay qishloq	Mirzayortepa	Mirzayortepa Nanay qishlog‘i hududida joylashgan. Tepalikning tabiiy yoki sun’iy tarzda barpo etilganligi xususida ilmiy tadqiqot, kuzatuv ishlari o‘tkazilmagan, uning tuzilishi va chegaralari aniqlanmagan. Tepalik tarkibi tosh va tuproq aralashmasidan iborat. Ayrim yozma manbalarda tepalik qadimda kuzatuv maskani bo‘lganligi qayd etilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida

3	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	O‘rdatepa O‘rta asrlar	Navkent qishloq	O‘rdatepa	Navkent qishlog‘i markazidagi O‘rda tepa oralig‘ida Buloqboshisoyining xar ikki qirg‘og‘i qalin to‘qay, qamishzor va butazorlardan iborat bo‘lgan. O‘rdatepa ustida kuzatuv nuqtalari joylashgan. Qishloqlarga kelayotgan mehmon va dushmanlar, xatto aholining qamishzor botqoq va to‘qayzorda yo‘qolgan chorva xayvonlari xaqidagi xabarlar xam tepaliklardagi kuzatuvchilarning maxsus ishoralari orqali zurur joylarga yetkazib turilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida
4	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Nog‘oraxona tepaligi (XVIII asr)	Obod MFY	Nog‘oraxona tepaligi	Nog‘oraxona. Yangiqo‘rg‘on shaharchasi hududidagi tepalik. Yangiqo‘rg‘on qishlog‘i qadimda tashqi dushmanlardan himoyalanish uchun o‘z askarlariga ega bo‘lgan. Dushman hujumidan aholi va askarlarni ogoh etish uchun qishloq chegarasida (hozirgi Yangiqo‘rg‘on-Namangan yo‘lining o‘ng tomonida) sun’iy tepalik, kuzatuv nuqtasi barpo etilgan. Qishloqqa dushman yaqinlashgan taqdirda bu tepalikdan, aholi uni hozirga qadar Nog‘oraxona nomi bilan atab kelmokda, nog‘ora chalinib, o‘t-olov yoqilib aholi ogohlantirilgan. Davlat mulki.
5	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	G‘ovazontepa Mil.av. IV — II asrlar	G‘ovazon qishloq	G‘ovazontepa	G‘ovazontepa nomi mazkur xudud aholisining suv toshqinlariga qarshi kurashshi jarayonidan kelab chiqqan. Chotqol tog‘lari tizmasi muzliklarning keskin erishi natijasida XVIII –asr oxiri XIX asr boshlarida Podshootp soyinning suvi nixoyatda ko‘payi soy o‘z o‘zanini o‘zgartiradi. Natijada ko‘plab aholi yashish manztlgoxlari, bog‘-tokzor ekinzorlar jiddiy zarar ko‘radi. Aholi sel yo‘liga g‘ov-to‘siq qurishga otlangan. G‘ov solish ishlari tunim bilan davom etib azon paytida yakunlangan. Xalq mazkur inshootni “G‘ovi azon” yani azondagi g‘ov deb atay boshlagan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida

6	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Qo‘rg‘ontepa O‘rta asrlar	G‘ovazon qishloq	Qo‘rg‘ontepa	Qo‘rg‘ontepa. G‘ovazon mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan. Tepalikning tabiiy yoki sun’iy tarzda barpo etilganligi xususida ilmiy tadqiqot, kuzatuv ishlari o‘tkazilmagan, uning tuzilishi va chegaralari aniqlanmagan. Tepalik tarkibi tosh va tuproq aralashmasidan iborat. Ayrim yozma manbalarda tepalik qadimda kuzatuv maskani bo‘lganligi qayd etilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida
7	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Qo‘shtepa O‘rta asrlar	Nanay qishloq	Qo‘shtepa	Qo‘shtepa. Qo‘shtepa Nanay qishloq hududida joylashgan. Tepalikning tabiiy yoki sun’iy tarzda barpo etilganligi xususida ilmiy tadqiqot, kuzatuv ishlari o‘tkazilmagan, uning tuzilishi va chegaralari aniqlanmagan. Balandligi 10 metr, maydoni 0,60 gektar. Tepalik tarkibi tosh va tuproq aralashmasidan iborat. Ayrim yozma manbalarda tepalik qadimda kuzatuv maskani bo‘lganligi qayd etilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida
8	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Ilontepa	Buloqboshi qishloq	Ilontepa	Zamondosh keksalarning xikoya qilishlaricha hozirgi Buloqboshi qishlog‘i markazidagi Ilontepa va Navkent qishlog‘i markazidagi O‘rda tepa oralig‘ida Buloqboshisoyining xar ikki qirg‘og‘i qalin to‘qay, qamishzor va butazorlardan iborat bo‘lgan. Ilontepa va O‘rdatepa ustida esa kuzatuv nuqtalari joylashgan. Qishloqlarga kelayotgan mehmon va dushmanlar, xatto aholining qamishzor botqoq va to‘qayzorda yo‘qolgan chorva xayvonlari xaqidagi xabarlar xam tepaliklardagi kuzatuvchilarning maxsus ishoralari orqali zurur joylarga yetkazib turilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida

9	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Tillatepa	Navkent qishloq	Tillatepa	Tillatepa. Tillatepa Navkent qishloq fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan. Tepalikning tabiiy yoki sun’iy tarzda barpo etilganligi xususida ilmiy tadqiqot, kuzatuv ishlari o‘tkazilmagan, uning tuzilishi va chegaralari aniqlanmagan. Tepalik tarkibi qum va tuproq aralashmasidan iborat. Ayrim yozma manbalarda tepalik qadimda kuzatuv maskani bo‘lganligi qayd etilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida
10	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Zo‘rtepa	Zarkent qishloq	Zo‘rtepa	Zarkentning kunchikar tomonida yastangan O‘ng‘or tog‘i qanchadan-qancha tarixiy voqealarning tilsiz guvohi. Tog‘ qachondan shu nom bilan atalgani aniq emas. Shunisi aniqki, tog‘ nomining kelib chikishi uzoq moziyga dalolat qiladi. Rivoyatlarga ko‘ra tog‘ bag‘rida o‘nta g‘or mavjud bo‘lib, o‘ninchi g‘orni hech kim ko‘rmagan. Ushbu g‘or har necha yuz yilda bir paydo bo‘lar va yana g‘oyib bo‘larmish. El og‘zida saqlangan rivoyatlarda qishloqning janubiy g‘arbida joylashgan Zo‘rtepa tepaligini O‘ng‘ortog‘ning ildizi deydilar. Tog‘ning o‘sib chiqish joyi Zo‘rtepadan boshlanarmish. Zo‘rtepa Xazrati Xizr alayhissalom qadamjosi ham hisoblanadi. Tepalikning sharq tomonida, toshlar ustida botiq izlar saqlangan. Ushbu izlar Xizr payg‘ambarning, uning eshagi va xassasining izlari degan rivoyatlar bor. Tepalik kadimda xam, yakin-yakingacha ham obod manzilgox bo‘lgan. Aytishlaricha, Qo‘qon xonligi davrida tepalik poyida xovuz barpo etilgan ekan. Keyinchalik, Sho‘rolar tuzumi paytida tepalik poyida katta dala shiyponi hamda xo‘jalik ishchilarining bolalari uchun bog‘cha qurilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida

11	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Jo‘lontepa Antik davr	«Do‘stlik» MFY	Jo‘lontepa	Jo‘lon tepa, Nanay qishlog‘ining Do‘stlik mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan. Tepalikning tabiiy yoki sun’iy tarzda barpo etilganligi xususida ilmiy tadqiqot, kuzatuv ishlari o‘tkazilmagan, uning tuzilishi va chegaralari aniqlanmagan. Tepalik tarkibi qum va tuproq aralashmasidan iborat. Ayrim yozma manbalarda tepalik qadimda kuzatuv maskani bo‘lganligi qayd etilgan. Tepalikda qadimdan ilonlar ko‘p bo‘lganligi uchun xalq o‘rtasida Jo‘lon tepa yoki Ilon tepa nomi bilan yuritilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida
12	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Sherqurboni al Vali O‘rta asrlar	G‘ayrat MFY	Sherqurboni Valiy	Sherqurbon vali qabristoni Birlashgan qishlog‘i G‘ayrat mahalla fuqarolar yig‘ini xududida joylashgan o‘rta asrlarga oid qabriston. Islom dini targ‘ibotchilaridan bo‘lgan Sherqurbon vali nomi atalgan. Xozirda harakatdan to‘xtagan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida
13	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Dumaloqtepa	Yumaloq Tepa MFY	Dumaloqtepa	Istiqlol qishlog‘i hududidagi tepalik. Namangansoyning o‘ng sohilida joylashgan Yumaloq tepa nomi bilan ataluvchi tepaliklar aslida yettita bo‘lib , xozirda ulardan ikkitasigina saqlanib qolgan. Yumaloq tepaning xozirgi butun qolgan qismi doira shaklida bo‘lib, aylanasi 1530 qadam. tepalik xozirda Shimol, G‘arb, Sharq, va Janub tomondan aholi uylari bilan o‘rab olingan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida
14	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Ettikontepa	Bekobod MFY	Ettikontepa	Bekobod qishlog‘i xududida joylashgan. Tepalikning tabiiy yoki sun’iy tarzda barpo etilganligi xususida ilmiy tadqiqot, kuzatuv ishlari o‘tkazilmagan, uning tuzilishi va chegaralari aniqlanmagan. Tepalik tarkibi qum va tuproq aralashmasidan iborat. Ayrim yozma manbalarda tepalik qadimda kuzatuv maskani bo‘lganligi qayd etilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida

15	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Oqtepa	Poromon MFY	Oqtepa	Oqtepa Poromon qishlog‘i xududida joylashgan. Tepalik O‘ng‘or tog‘i tarkibiga kiruvchi Nov tog‘lari etagida joylashgan. Tepalik tarkibi asosan tog‘ ohak toshlaridan iborat bo‘lganligi uchun oq tusga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tabiiy tepalik bo‘lgan mazkur ob’ektga Oqtepa nomi berilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida
16	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Kandiyontepa	Qandiyon qishloq	Kandiyontepa	Qanidyon tepa Qandiyon qishlog‘i xududida joylashgan. Tepalikning tabiiy yoki sun’iy tarzda barpo etilganligi xususida ilmiy tadqiqot, kuzatuv ishlari o‘tkazilmagan, uning tuzilishi va chegaralari aniqlanmagan. Tepalik tarkibi qum va tuproq aralashmasidan iborat. Ayrim yozma manbalarda tepalik qadimda kuzatuv maskani bo‘lganligi qayd etilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida
17	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	(Gaistontepa) G‘alvirtepa	Gaiston qishloq	(Gaistontepa) G‘alvirtepa	Gayiston tepa Gayiston qishlog‘i xududida joylashgan tepalik. Qishloq aholisi qadimda asosan g‘allachilik bilan shug‘ullnganligi uchun gegrafik jihatdan yon atrofdagi boshqa tepaliklardan baland bo‘lgan tepalikda bug‘doy, arpa . suli Javdar kabi donli ekinlar g‘alqirdan o‘tkazilganligi uchun tepalik g‘avir tepa nomi bilan yuritilgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida
18	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Toshqo‘rg‘on-1	Poromon qishloq	Toshqo‘rg‘on-1	Toshqo‘rg‘on-1 Poramon qishlog‘i xududida joylashgan tepalik. Qishloq aholisi qadimda asosan g‘allachilik bilan shug‘ullngan. Geografik jihatdan yon atrofdagi boshqa tepaliklardan baland bo‘lgan. Tepalikning tarkibi xarsang tosh va tosh uyumlaridan iborat bo‘lganligi uchun yerlik axoli tomonidan shunday nom bilan atalib kelgan. Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida

19	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Uch til tepaligi	Qorasuv MFY	Uch til tepaligi	Qorasuv MFY xudida joylashgan tepalik. Uchtil tepaligi sun'iy tepalik bo‘lib, xozir tepalikda Ichki kasalliklar shifoxonasi joylashgan. Qadimda tepalikning uch tomonida quyi, o‘rta, tepa guzar nomlari bilan qishloq markazlari hamda O‘rda, Tarafi O‘rda mahallalari vujudga kelgan. O‘tgan asrning XX yillarida tepalikda arab, o‘zbek, rus tillarida o‘qitiladigan maktab tashkil etilganligi uchun tepalik “Uchtil” tepaligi deb atalgan. Davlat mulki. Davlat ro‘yxatiga olinmagan (19 asr oxirida tepalikda uch tilda o‘qitiladigan maktab tashkil etilgan)
20	Arxeologiya yodgorligi (tepaliklar)	Chosh tepa (18 asr)	Rovut MFY	Chosh tepa	Chosh tepa nomi mahalliy aholining mashg‘ulot turi bilan bog‘liq. Hududda aholi asosan g‘alla, bug‘do yetishtirish bilan shug‘ullangan. Xosil pishib yetilgach, adir shamolida bug‘doyni sovurib, somonidan batamom ajratib olingach bir yerga uyub to‘plab qo‘yilgan. Somonidan tozalab bir yerga to‘plab qo‘yilgan don uyumi esa “Chosh” deb atalgan. Dexqonlar tomonidan yetishtirilggan xosilni yig‘ishtirish marosimi “Chosh bog‘lash” deb atalgan. “Chosh bog‘lash” dexqon nazar qilib, choshga baraka bersin degan maqsadda o‘tkazilgan. Mazkur marosim tufayli tepalik “Chosh tepa” nomi bilan atalib keladi. Davlat mulki. Davlat ro‘yxatiga olinmagan
t/r	**Geografik obektning turi**	**Geografik obektning amaldagi nomi**	**Joylashgan joyi**	**Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif**	**Izox**
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**

1	Arxitektura yodgorligi (Ziyoratgoh)	Aqtam Ota maqbarasi XVIII asr	Oktom MFY	Aqtam Ota maqbarasi	Rivoyatlarga ko‘ra, Oqtom qishlog‘ining kelib chiqishi Hazrat Ali bilan bog‘lanadi. Hazrat Ali duo‘sti Aqtam Sahoba bilan ovga chiqib bir joyda uxlab qoladi. Aqtam Sahoba odidan chiqib qolgan oohuni quvib ketayotib, dushman lashkarlariga duch keladi. Makotil boshliq dushmanlar Aqtam Sahobaga Hazrat Alini o‘ldirmoqchi bo‘lib ketayotganliklarini aytadilar. Do‘stini o‘limdan saqlab qolish maqsadida Aqtam Sahoba ularga “Men Hazrat Aliman”,-deya javob beradi.Dushmanlar tengsiz jangda Aqtam Sahobaning boshini tanasidan judo etganlar. Hazrat Ali uyg‘ongach, do‘stini qidirib uning jasadini topadi. Dushmanlardan qasd olgaya, Hazrat Ali do‘sti Aqtam Sahobani shu yerga dafn etadi. Keyinchalik, qishloq Aqtam Sahoba sharafiga Oqtom deb atalgan. Davlat mulki.Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida «Vaqf» xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asosida biriktirilgan.
2	Arxitektura yodgorligi (Ziyoratgoh)	Bobo Yaxso‘z maqbarasi XIX asr	Nanay qishlog‘i Qayroqi MFY	Bobo Yaxso‘z maqbarasi	Aytishlaricha uch og‘a-ini odamlarni xidoyat sari boshlash uchun uzoq yurtdan (ehtimol Arabistondan) yo‘lga chiqadilar Og‘a-inilarning eng kattasi Nanay xududida qolishga qaror qilgan. Inilari bu fikirga qarshi chiqishgan lekin har oyning bir kunida uchrashib turishgan axdlashilib xayrlashilgan. Axdlashilggan kuni kelgan inilar mezbonni qozon tagiga muz qalab puflab olov yoqayotganini ko‘radi. Qozon to‘la go‘sht qaynab xidi atrofga taralayotgan edi. Inilari xazratning karomatini Alloxning unga berggan inoyati deb bilishadi. Yaratganga xamdu-sanolar aytib tarqalishadi. Hazrat “Muzni yoqqan avliyo” yangi “Yaxsuz ota”, “Yaksuz bobo” nomi bilan shuxrat topadi. Nanay qishlog‘ining shimoliy-sharqida adir yerda joylashgan qishloq qabrsitonidagi tepalikda “Yaxsuz bobo” manguga bosh qo‘ygan deyishadi Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida

3	Arxitektura yodgorligi (Ziyoratgoh)	Abdulla Bir urug‘	Gaiston MFY	Abdulla Bir urug‘	Ushbu ob’ekt sharqdan Yorilgan MFY, g‘arbdan Kosonosoy tumani bilan chegaradosh bo‘lib, uning g‘arbiy va shimoliy qismlari adrliklar bilann o‘ralgan. Ziyoratgoxning paydo bo‘lishi eramizdan avvalgi XIV-XV asrlarga to‘g‘ri keladi. Rivoyatlarga ko‘ra Arab saxobalaridan bir urug‘ning vakillari Islom dinini da’vat qilish uchun bu yerga kelganlar. Kofirlar bilan bo‘lggan jangda Abdullox bir urug‘ining jangchilari chekina borib, shu yerdagi adrlik ustigga chiqib **“Yoril g‘or”** -deb xitob qilganlar. Shunda ular turgan adirlik poyida yer yorilib g‘or paydo bo‘ladi va Abdullox bir urug‘i vakillari ushbu g‘orga kirib g‘oyib bo‘ladilar. Abdullox bir urug‘ nomi o‘tmishdagi ota-bobolar mehnatidan yodgorlik sifatida saqlanib qolingan. Davlat mulki. Davlat ro‘yxatiga olinmagan.
4	Arxitektura yodgorligi (Ziyoratgoh)	Qorapolvon ota ziyoratgohi XVIII asr	Qorapolvon MFY	Qorapolvon ota	Mazkur Ziyoratgox Qorapolvon qishlog‘ida joylashgan. Xozirggi qishloq o‘rniga atrof xududlardan odam ko‘chib kelib, qamishzorlar, to‘qayzorlar yo‘qotilib yerlar o‘zlashtirilggan. Ko‘chib kelggan aholi yashish uchun yerto‘la va paxsa uylarni qura boshlaganlar. Qishloqqa asos solinib, uning atrofi paxsa devor bilan o‘rab olingan. Bu xududga dastlab ko‘chib kelgan o‘qimishli, xunarmand, polvon ustani mahalli holi o‘ziga “Biy” etib saylagan va shu tariqa qishloq boshqaruvi vujudga kelggan. Qishloq tobora kengayib kattalasha borgan. Qishloq o‘z Biyini ulug‘, katta, baxodir- “**Qorapolvon”** deb atay boshlagan. (“Qora”-so‘zi qadimgi turk tilida “Ulug‘-buyuk” ma’nolarini anglatggan.) Davlat mulki. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida.

5	Arxitektura yodgorligi (Ziyoratgoh)	Amr Ota yodgorlik majmuasi	Buloqboshi MFY	Amr Ota yodgorlik majmuasi	Navkent qishlog‘inining Buloqboshi aholi manzilgoxida joylashgan qabr. Qabrga Soxibkaromat avliyo Amir ota dafn etilggan. Qabr o‘zining boshqa qabrlardan o‘lchami jixatidan kattaligi (Qabr 7x3 o‘lchamda) bilan ajralib turadi. Amir ota qishloq aholisini suv bilan ta’minlash maqsadida, yer osti suvlari bor yerlarni aniqlab, xassasi yordamida suv yo‘liga chiziv tortgan. Chiziq tortilgan yerlardann buloq suvlari oqib chiqqan. Buloq suvlari Yangiqo‘rg‘on shaharchasining sharq tomoniga qadar oqib borib, ulkan soy xosil qilggan. Soy Namangan yo‘nalishidagi qishloqlarni su bilan ta’minlagan. Davlat mulki.

6	Arxitektura yodgorligi (Ziyoratgoh)	Abdulla Xo‘ja Eshon yodgorlik majmuasi	Obod MFY	Abdulla Xoji Eshon yodgorlik majmuasi	O‘z davrining yetuk allomasi va avliyosi Abdulla Xo‘ja Eshon XVII asr o‘rtalari va XVIII asr boshlarida yashagan xalq orasida xurmatga ega bo‘lgan tasavvuf ta’limoti vakilllaridan biri bo‘lgan. Abdulla Xo‘ja Eshon o‘z davrining valiylaridan bo‘lib, ko‘p karomatlar ko‘rsatgan. Qur’oni Karimni yoshligidayoq yod olganlar. Asosiy vaqtlarini kitob mutolasi va toat-ibodatda o‘tkazganlar. U kishining yetti nafar farzandlari bo‘lgan, biroq ular erta olamdan o‘tganlari uchun ortiqcha ma’lumotlar qolmagan. Tumandagi masjid imomlari, ba’zi ulamolar tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, XVIII asr o‘rtalarida rus askarlarining kichik bir guruxi Namangandan chiqib tumndan 4 km. uzoqlikda joylashgan Radivon qishlog‘idagi adirliklarga yetib keladi. Adirlikdan pastda Yangiqo‘rg‘on qishlog‘i bo‘lib askarlar axoliga vahima solish uchun adir ustidan nog‘ora chalishgan. Ketmon, boltalar bilan qurollangan xalq Abdulla Xoji Eshon oldilariga maslahat so‘rab boradi. Eshon domla quyuq qoshlarini yuqoriga ko‘targancha ularga qarab: “Ular Hazrati Hizr tizginida turishibdi, sizlarga xavf solmay qaytishadi, uylaringizga borib kutinglar”,- deb maslahat beradilar. Ertasi kuni askarlar yana Namanganga qaytishadi. Bu g‘aroyibotni ko‘rgan kishilarning eshon buvaga ihlosi yanada ortgan. Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.Zero, xudud aholisining azaldan eshon buva qabrlari oldidan o‘tganlarida otdan tushib, piyoda yurishi, duoga qo‘l ochib, u zotni vasila qilib, Allohdan madad so‘rashi bejiz emas.Davlat mulki. Davlat ro‘yxatiga olinmagan.

7	Arxitektura yodgorligi (Ziyoratgoh)	Boboixandon maqbarasi	Ibrat MFY	Boboixandon	Buvai Handon (Boboi Handon) Islom dinini mahalliy aholi o‘rtasida targ‘ib etish uchun xalifalik tomonidan yuborilggan ko‘p sonlik daavatchilardan biri bo‘lgan. Boboi Handon nomi bilan mashxur bo‘lggan Shayx Nuriddin boshchiligida masjid barpo qilingan. Shayx Boboi Handon vafot etgach uni o‘zi barpo etgan masjid binosining sharq tomonidagi tepalik ustiga dafn etilgan. Qabr atrofi paxsa devol bilan o‘ralgan. Keyinchalik qabr tepasiga pishgan g‘ishtdan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida ayvonli maqbara binosi qurilgan. Qabr ustiga tag qismini to‘g‘ri to‘rtburchak, ustgi qismi ovalsimon g‘ishtin sag‘ana o‘rnatilgan. Boboi Handon qabrining quyi janubiy qismiga uning izdoshlari, shogirdlari dafn etib borilgan. Davlat mulki. Davlat ro‘yxatiga olinmagan.

Tuman hokimining

maslahatchisi **D.Boychaev**

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman

Kengashining _____-sonli qaroriga

3-ilova

t/r	Geografik obektning turi	Geografik obektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izox
1	Qishloq	Bekobod	Bekobod	Bekobod. “…Bekobod qishlog‘ining o‘ziga xos qadimiy tarixi mavjud. Chunonchi, 17-asr boshlarida hozirgi Qozog‘istonning Marki shahri joylashgan xududdagi axolining vakillari qishloqdagi Yettikon tepaligi atrofiga o‘rnashib, chorvachilik bilan shug‘ullana boshlaganlar. Ko‘chmanchilar mahalliy qirg‘iz aholisi bilan yaylov talashib, janjallashadilar. Bir necha bor bo‘lib o‘tgan to‘qnashuvlarda yengilgan Markiliklar hozirgi masjid atrofiga ko‘chib kelib dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlaydilar. Qo‘qon xoni Erdonabek bu yerlarni obod qilish uchun Bekberdi dodxoni yuboradi va unga qishloqni obod qilish vazifasini topshiradi.” (Yu.Qirg‘izov, T.Akramov. “Bir o‘lkaki”. “Namangan” nashriyoti) Bekberdi dodxoh qishloqqa asos solib, karvonsaroy, bozor, masjid, do‘kon va guzarlar, yo‘l va ko‘priklar quradi. Ko‘chalarni obodonlashtirib, bog‘lar barpo ettiradi. Qishloq kun sayin obodlashadi, savdo-sotiq, dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik rivojlanadi. Qishloq Bekberdi dodxoh nomi bilan Bekobod deb atala boshlaydi.
2	Qishloq	Birlashgan	Birlashgan	Birlashgan qishlog‘i tarkibiga Xo‘jasho‘rkent, Qorachasho‘rkent, G‘ovazon aholi manzilgohlari kiradi. Mazkur xududda istiqomat qilayotgan Xo‘ja, Qoracha, Qipchoq etnik guruhlari o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida, Xo‘jasho‘rkent, Qorachasho‘rkent, G‘ovazon aholi manzilgoxlarini yagona xududga birlashtirilib Birlashgan qishlog‘i deb nomlangan.
3	Qishloq	Zarbdor	Zarbdor	Zarbdor qishlog‘i Qadimdan Iskavot qishlog‘i deb atalib kelgan. Sovet davridagi Besh yillliklarga mutanosib ravishda qishloq Zarbdor qishlog‘i deb qayta nomlangan.

4	Qishloq	Zarkent	Zarkent	Zarkent. Zarkent qishlog‘ining paydo bo‘lish davri tarixiy asarlarda bundan 800-1000 yildan ortiqroq vaqtga bog‘lanadi. Qishloq katta savdo karvonlarining yo‘lida joylashganligi uchun ham u qadimdan juda obod va boy qishloq bo‘lgan. Qishloq markazidagi katta yo‘lning ikki tomoni savdo rastalari, do‘kon va zargarlik ustaxonalaridan iborat bo‘lib, ularda assan zargarlik buyumlari: tilla va kumushdan yasalgan uzuklar, baldoq, isirg‘a, soch va ko‘krak tumorlar yasalib, zarchoponlar tikilgan. Zar, dur, tilla va kumush bilan savdo qiluvchi Qo‘qonlik, Kosonlik, Namanganlik, Toshkent, Samarqand va Buxorolik savdogarlar bu yerda bir necha kunlab qolib ketishgan. Qishloqda bozor, karvonsaroy, choyxona, oshxona, mehmonxonalar qurilgan. Qishloq Zarxon, Zarga kon, Zarkon, Zarkent nomlari bilan atala boshlagan. Bundan 200, 250 yil muqaddam qishloq Zarkent nomini olgan.

5	Qishloq	Qorapolvon	Qorapolvon	Qorapolvon. Qorapolvon qishlog‘i tarixi turli yozma manbalarda turlicha talqin qilinadi. Masalan: “...Qorapolvon qishlog‘i tarixi 7-asrning 80-yillarida Qirg‘iziston xududidagi Safed Bulonda bo‘lgan arablar jangi bilan bog‘liq. Arab sarkardalaridan shoh Jarir (Muhammad ibn Jarir ibn Abutolib) bu xududlarda Islom dinini joriy etish uchun 12 ming kishilik qo‘shin bilan keladi. Safed Bulon qishlog‘ida arablar sarkardasi Shoh Jarir qo‘shinlari bilan Koson Ixshidi va O‘ng‘or hokimi Karvonbos qo‘shinlari o‘rtasida qattiq jang bo‘lib o‘tadi. Xalifalik qo‘shinlari qishloqdagi masjidda juma namozini o‘qiyotganlarida Koson Ixshidi va O‘ng‘or hokimining birlashgan qo‘shinlari arablarni 2700 nafarini boshlarini tanalaridan judo etib, o‘ldiradilar. Mag‘lubiyatga uchragan shoh Jarir Arabistonga qaytib ketadi. Sahobalarning bir qismi esa shu yerda qolib boshpana topadilar. Sanoch tog‘idagi Otag‘ozi buva, Podshootadagi Buvota ota, Qorapolvondagi Qorapolvon ota, Boboi xandondagi shayh Nuriddin, Oqtomdagi Ibrohim Atham, Yangiqo‘rg‘on jome’ masjidi va Qorayontoq qishloq masjididagi sahobalarning qabrlari shular jumlasidandir. Oradan qirq yil vaqt o‘tib shoh Jarirning o‘g‘li shoh Fozil qishloqqa qaytib keladi va Qorapolvon yordamida shahidlarni qayta dafn qiladi. Ularning nomlarini toshga o‘ydirib, abadiylashtiradi. O‘zining halol mehnati va savobli ishlari bilan xalq o‘rtasida katta obro‘ga ega bo‘lgan, bundan 1300 yil ilgari hozirgi Qorapovon qishlog‘ida istiqomat qilgan kishining asli ismi Xalo bo‘lib, qora tanli xabash va baquvvat, barvasta gavdali bo‘lganligidan unga Qorapolvon deb nom berishgan. U vafot etgach shu qishloqqa dafn etishgan. Qorapolvon otaga nisbat berib qishloq hozirga qadar Qorapolvon deb nomlanib kelmoqda. Bundan tashqari qadimiy turkiylar dunyo tomonlarini ranglar bilan belgilaganlar. Qora –Shimol, Qizil –Janub, Sariq –Sharq, Yashil –G‘arb. (“Bir o‘lkaki” Yu.Qirg‘izov, T.Akramov. “Namangan” 1996 yil.)
6	Qishloq	Sharq Yulduzi	Sharq Yulduzi	Yangiqo‘rg‘on tumani hududidagi qishloq. Qishloq tarkibida Gayiston, Nurafshon, Do‘ldi, Rovut, Qizilqiyoq aholi manzilgohlari mavjud. Sovet hokimiyatidagi besh yilliklar davrida mazkur aholi manzilgohlari Sharq Yulduzi deb to‘qima nom bilan yuritilib kelgan.
7	Qishloq	Navkent	Navkent	Navkent. Navkent qishlog‘ining tarixi qadimiy bo‘lib, Navkent atamasi sharqiy Eron tilida “Nav” -yangi, “kent” -shahar, qal’a ma’nolarini anglatadi. Qadimiy so‘g‘diylarning avlodlari bo‘lgan “sart” qabilalari birinchi ming yillik o‘rtalarida mazkur xududlarga kelib o‘rnashganlar hamda hozirgi Navkent qishloq fuqarolar yig‘inida joylashgan qishloqlarga asos solganlar.

8	Qishloq	Nanay	Nanay	Nanay. Nanay qishlog‘i tarixi 12-13 asrlardan boshlanadi. Qishloq hududidan topilgan qadimiy sopol idishlar, xum va ko‘zalar, jang qurollari: singan qilich dastasi, o‘q yoy uchlari, metall sovut qoldiqlari, ko‘hna qabr toshlari qishloqning qadim tarixi borligidan guvohlik beradi. Shuningdek, Qadimiy Mesopotamiyaliklar va mamlakatimiz xududlarida yashagan Zardushtiylar unumdorlik ilohini Nanay deb atashgan. Ayni paytda qadimgi So‘g‘dliklar ham yetishtirilgan mo‘l hosilni Nanidat ya’ni Nanay ehsoni sifatida qabul qilganlar. “… 1365 yildagi Chinoz yaqinidagi “Jangi loy”dan so‘ng aholining bir qismi Chotqol etaklari, Qurama tog‘lari osha hozirgi Nanay qishlog‘iga kelib o‘rnashganlar. Namangan uezd boshlig‘i, bir necha yil Nanay qishlog‘ida yashagan Nalivkin ham: chorva mollarini boqish uchun Bustonliqning Nanay qishlog‘idan 10 uylik oila ham ko‘chib kelganligini hamda bu joyni ham Nanay deb atalganini ta’kidlagan…”(Yu.Qirg‘izov, T.Akramov. “Bir o‘lkaki”. 1996 yil.“Namangan” nashriyoti)
9	Qishloq	Navro‘zobod	Navro‘zobod	1992 yilga qadar Navro‘zobod qishlog‘i Zarkent va Yalong‘och qishloqlari tarkibida bo‘lgan. 1992 yilgi ma’muriy-xududiy bo‘linish yuzasidan bo‘lgan murojaatlarga asosan, Zarkent va Yalong‘och qishloqlarining bir qismi xozirgi Navro‘zobod qishlog‘iga o‘tkazilib, yangi Navro‘zobod qishlog‘i tashkil etilgan.
10	Qishloq	Istiqlol	Istiqlol	1976 yilga qadar Yangiqo‘rg‘on qishlog‘i nomi bilan yuritilgan. 1976 yildan Yangiqo‘rg‘on qishlog‘i tarkibidan ajralib chiqib, Staxanov nomli qishloq deb yuritilgan. 1992 yildan Istiqlol qishlog‘i xamda xalq deputatlari Istiqlol qishlog‘i Kengashi nomi bilan yuritila boshlangan.

11	Qishloq	Poromon	Poromon	Poromon. Poromon qishlog‘i tarixi juda qadimiy bo‘lib, tabiiy geografik jihatdan aholi yashashi uchun qulay xududlarga joylashganligi sababli Poromon qishlog‘i atrofdagi boshqa qishloqlarga nibatan avvalroq paydo bo‘lgan. Dastlab bu yerlarga ko‘chib kelgan oilalar ovchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanib, asta-sekin dehqonchilik va bog‘dorchilikni o‘rgana boshlaganlar. Yuqori navli tok ekib, uzum yetishtirishni va uni quritib, mayiz tayyorlashni juda yaxshi o‘zlashtirganlar. Boshqa hududlar bilan savdo-sotiq munosabatlarini yo‘lga qo‘yganlar. Poromon qishlog‘i nomini kelib chiqishi turli rivoyatlar bilan bog‘liq. Chunonchi, Avliyo Hazratishoh buva arablar bostirib kelgan davrlarda urushdan nolib, Namangan shahridan chiqib ketadi. Tarki dunyo qilib, qalandarlik yo‘lini tutgan Hazratishoh buva Ollohdan yashash uchun osoyishta bir manzilgoh so‘raydi. Shunda Avliyoga, -“Osmondan pora non tushgan joy sening manzilgohing bo‘lsin”, -degan xabar keladi. Qishloqdagi hozirgi “tutmozor” oldiga osmondan yarimta (pora) non kelib tushadi va Hazratishoh buva shu yerga chayla qurib yashay boshlaydi. Atrofga ko‘chib kelgan oilalardan qishloq tarkib topadi. Qishloq Poromon, aholi esa poromonliklar deb atala boshlangan. .Shuningdek, qishloq toponimikasi bo‘yicha “Poranon”, “Qoranon” to‘g‘risidagi rivoyatlar ham mavjud. Aslida qishloq tog‘ yonbag‘rida joylashganligidan uni ayvondagi piramonga o‘xshatishgan va piramondagi qishloq deb atashgan. Piramon so‘zidan esa Poromon qishlog‘i nomi paydo bo‘lgan.

Tuman hokimining maslahatchisi **D.Boychaev**

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman

Kengashining _____-sonli qaroriga

4-ilova

t/r	Geografik obektning turi	Geografik obektning amaldagi nomi	Joylashgan joyi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1	Ko‘cha	Nomsiz	Oqtepa MFY	Qo‘rg‘onariq
2	Ko‘cha	Nomsiz	Bekobod	Archazor
3	Ko‘cha	Nomsiz	Bekobod	Rohat
4	Ko‘cha	Nomsiz	Bekobod	Yangibog‘
5	Ko‘cha	Nomsiz	Bekobod	Baliqko‘l
6	Ko‘cha	Sho‘rko‘l	Navkent	O‘rdatepa

Tuman hokimining

maslahatchisi **D.Boychaev**